

**Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJ kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga
Xizmatlar ipotekasi moliyaviy yordamini taqdim etish yuzasidan 2024-yilning
uchinchi ochiq tanlovini
E'LON QILADI**

Moliyalashtirish manbasi nomi:	Kompaniya mablag'lari
E'lon turi:	Ochiq tanlov
E'lon qilingan sana:	2024-yil 01-avgust
Loyiha anketasini taqdim etish oxirgi sanasi:	2024-yil 14- avgust
Loyiha anketasini yuborish uchun Email:	ipoteka@edcom.uz

I. Xizmatlar ipotekasi moliyaviy yordami:

Ushbu moliyaviy yordam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-sod Farmoni hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rnlarda-Kompaniya) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan Kompaniya tomonidan taqdim etiladi.

Xizmatlar ipotekasi - bir taraf (Kompaniya) ikkinchi taraf (loyiha tashabbuskori)ning topshirig'iga binoan uchinchi taraf (sotuvchi)dan xizmatlar ipotekasini taqdim etish shartnomasida shartlashilgan mol-mulk (bitim obyekti)ni mulk qilib sotib olishni va uni shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga foydalanish huquqi bilan loyiha tashabbuskoriga berishni nazarda tutadigan munosabat hisoblanadi.

II. Moliyaviy yordam haqida ma'lumot:

Ushbu moliyaviy yordam ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishslash va qadoqlash tarmoqlari hamda go'sht va tuxum etishtirish yo`nalishi bo'yicha ko'chmas mulk va asbob-uskunalar sotib olishni ko'zda tutadi.

Moliyaviy yordam - ko'chmas mulk va asbob-uskunalarning 70 foizigacha biroq o'rta toifaga mansub korxonalar uchun 10 mlrd so'mgacha, yillik daromadi 6 mlrd so'mdan ortiq, kichik toifaga mansub korxonalar uchun 5 mlrd so'mgacha bol'gan miqdorda yillik 17,5 foiz yoki bo'lib-bo'lib to'lash sharti asosida taqdim etiladi.

Moliyaviy yordam milliy valyutada ajratiladi.

Moliyaviy yordam 7 yilgacha taqdim etiladi.

Asosiy qarz bo'yicha imtiyozli davr loyihaning tavsifidan kelib chiqib belgilanadi.

Moliyaviy yordamdan foydalanganlik uchun vositachilik haqi – moliyaviy yordam summasining 0,6 foizi miqdorida belgilanadi.

III. Loyiha tashabbuskorlariga qo'yiladigan talablar:

yomon kredit tarixiga ega bo'lmasligi;

budjet oldida muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi, tugatish jarayonida va bankrotlik ishi qo'zg'atilmagan bo'lishi hamda korxona zarar bilan faoliyat yuritayotgan bo'lmasligi;

loyihada tashabbuskorlarning kamida 30 foiz ulush bilan ishtirok etishi;

yigirma to'rt oydan ortiq faoliyat yuritayotgan hamda murojaat sanasida o'ttiz besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan o'rta tadbirkorlik subyektiga yoki murojaat sanasida o'n besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo'lishi lozim;

IV. Loyiha tashabbuskorining anketalarini baholanishi:

Loyiha anketasi tasdiqlangan kichik yoki o'rta tadbirkorga xabar yuboriladi (rasmiy sayt orqali ham ma'lum qilinadi) va ulardan to'liq loyiha arizasini, biznes-rajalari hamda boshqa hujjatlarni taqdim etishlari so'raladi.

Amaldagi qonunchilik va ko'rsatmalarga muvofiq barcha talab etiladigan arizalar, hujjatlar va ma'lumotlarni quyida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra baholash uchun tanlab oladi.

V. Ustuvorlik beriladigan loyihamalar:

yangi ish o'rinalarini yaratish soni;

ishchi xodimlarning mehnatiga xaq to'lash miqdorlari nisbatan yuqoriligi;

qo'shimcha qiymat yaratilishining yuqoriligi;

yashil va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish nazarda tutilgan loyihalarga ustunlik beriladi.

VI. Quyidagi loyihamalar moliyalashtirilmaydi:

qimorxona va billiardxonalar, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ular savdosini tashkil etish uchun talab etiladigan bino va uskunalar;

ulgurji savdo, umumiyl ovqatlanish hamda alohida tashkil etiladigan avtomobilarga yonilg'i quyish shoxobchalari bino va uskunalari (bundan savdo va servis, yo'l bo'yni infratuzilma obyektlari, jumladan kompleks tarkibida avtomobilarga yonilg'i quyish hamda savdo shoxobchalari faoliyatini tashkil etish, "yashil" texnologiyalarni, jumladan elektromobilarni quvvatlantirishda foydalaniladigan bino va uskunalari mustasno);

transport vositalari sotib olish;

qishloq xo'jaligi yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihamalar (bundan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishslash va qadoqlashda foydalaniladigan bino va uskunalar mustasno).

Yuqoridagi moliyaviy yordamdan foydalanish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari 10 (o'n) ish kuni davomida ilovadagi Anketa ma'lumotlarini ipoteka@edcom.uz pochta manziliga taqdim etishlari mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon raqami +99871-238-69-06(07)